O‘ZBEKISTON MUSTAQILLIGIDAN KEYIN FUTBOL SPORT TURINI RIVOJLANISHI. (1991-2005)

Eraliyev Nodirbek Muhammadjon o‘g‘li
University of Business and Science
nodirbekeraliyev07@gmail.com
+998994051909

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston mustaqilligidan keyin O‘zbek futboliga 1991-2005-yillarda berilgan e’tibor va ushbu davrdagi yutuq va kamchiliklar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Futbol, jismoniy tarbiya, sport, Paxtakor, Nasaf, Neftchi, FIFA, Osiyo chempionati, Do‘stlik.

Аннотация: В данной статье рассказывается о внимании, уделяемом узбекскому футболу в 1991-2005 годах после обретения Узбекистаном независимости, а также достижениях и недостатках этого периода.

Ключевые слова: Футбол, физкультура, спорт, Пахтакор, Насаф, Нефтчи, ФИФА, Чемпионат Азии, Дружба.

Abstract: This article talks about the attention paid to Uzbek football in 1991-2005 after the independence of Uzbekistan and the achievements and shortcomings of this period.

Keywords: Football, physical education, sports, Pakhtakor, Nasaf, Neftchi, FIFA, Asian Championship, Friendship.

Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish ijtimoiy siyosatning muhim yo‘nalishlaridan biri etib belgilangan. Chunki jismoniy tarbiya va sport aholi salomatligini mustahkamlash, yosh avlodni sog‘lom va barkamol etib tarbiyalash orqali jamiyatda sog‘lom turmush tarzini qaror toptiradi. Turli kasalliklar, yoshlar o‘rtasida zararli odatlarning oldini oladi. Sport yuksak madaniyat, vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishda ham muhim o‘rin tutadi. Bu sohada erishilgan yutuqlar mamlakatni dunyoga tanitadi, barcha yurtdoshlarga g‘urur-iftixor bag‘ishlaydi. Jamiyatimizda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, aholining, ayniqsa, yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug‘ullanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar

yaratish, sport musobaqalari orqali yoshlarda o‘z irodasi, kuchi va imkoniyatlariga bo‘lgan ishonchni mustahkamlash, mardlik va vatanparvarlik, ona Vatanga sadoqat tuyg‘ularini kamol toptirish, shuningdek, yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish ishlarini tizimli tashkillashtirish hamda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirishga yo‘naltirilgan keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Zero, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Bugungi kunda “Farzandlarimiz bizdan ko‘ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo‘lishlari shart!” degan hayotiy da’vat har birimizning, ota-onalar va keng jamoatchilikning ongi va qalbidan mustahkam o‘rin egallagan”.



Futbol - O‘zbekiston xalqi madaniy hayotining ajralmas qismlaridan biridir. O‘zbek futbolining tarixi uzoq davrlarga borib taqaladi. Aniqrog‘i, XX asrning boshida, 1912 yilning o‘zidayoq butun Farg‘ona vodiysi, xususan Qo‘qon shahri ushbu o‘yin bilan "kasallanib" bo‘lgan edi.

Sobiq Ittifoq tarkibida O‘zbekiston vakillari o‘tgan asrning 20-yillaridan boshlab turli musobaqalarda qatnasha boshlagan.

Sobiq Ittifoq futboli hayotida O‘zbekiston doimo alohida o‘rinlarda turgan. O‘zbekiston jahon futboliga Gennadiy Krasnitskiy, Yuriy Pshenichnikov, Birodar Abduraimov, Mirjalol Qosimov, Vadim Abramov, Maksim Shatskix, Ravshan Ermatov kabi shaxslarni taqdim etgan. [1, 15. B]

Bugun mustaqil O‘zbekiston futboli rivojlanishi yanada baland cho‘qqiga chiqish arafasida turibdi. O‘zbekiston milliy jamoasi futbol olamida eng nufuzli musobaqa bo‘lgan — Jahon Chempionatiga chiqish yo‘lida harakat qilmoqda.

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng, o‘zbek futboliga davlat miqyosida e’tibor qaratildi. Respublikamizning har bir mintaqasida futbol infratuzilmasini rivojlantirish, jamoalar saviyasini o‘stirish, yosh iqtidorlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirildi. Mamlakatimiz mustaqillik yillarda sportning futbol turini yanada rivojlantirish, sohaning huquqiy asoslarini mustahkamlash maqsadida bir qator farmon va qarorlar qabul qilindi. Ushbu farmon va qarorlarning ijrosi o‘laroq yurtimiz futbolida istiqbolli o‘zgarishlar amalga oshirildi. Futbolchilarni tayyorlash, tayyorgarlik

tizimlarini takomillashtirish va ularning natijaviyligini taminlashga doir ishlarga alohida e’tibor qaratildi. Buning samarasida klublarimiz bilan birga, terma jamoalarimiz ham qit’a va xalqaro miqyosidagi musobaqalarda munosib ishtirok etib kelmoqda.

1992 yil mustaqil O‘zbekiston Respublikasining ilk chempionati yili edi. Mamlakatimiz futboli tarixida yangi sahifa ochildi. Bu chempionatning oliy ligasida 17 ta, birinchi ligasida 18 ta, ikkinchi ligasida esa 42 ta jamoa ishtirok etdi. O‘zbekiston chempioni unvoni uchun kechgan shiddatli kurashda «Paxtakor»ga asosan Farg‘ona vodiysining «Neftchi», shuningdek, «So‘g‘diyona» (Jizzax) va «Nuraf-shon» (Buxoro) jamoalari kuchli qarshilik ko‘rsatdilar.

1994 yil 7 iyunda O‘zbekiston Futbol federatsiyasi «FIFA(ФИФА)»ga, shu yilning dekabr oyida esa Osiyo Futbol konfederatsiyasiga a’zo bo‘ldi. [1, 10. B]

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993 yil 18 martdagi «O‘zbekiston Respublikasida futbolni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmonining mamlakatimizda futbolni rivojlantirishdagi ahamiyati juda kattadir.

1994 yilda ilk bor yosh mustaqil respublika elchilari Yaponiyada o‘tkazilayotgan XII Osiyo o‘yinlarida – Osiyo mintaqasidagi yirik sport forumida tanishtirildilar.

Oltin medal sovrindorlari nomi uchun kurashda o‘zbek futbol ustalarii Saudiya Arabistoni (4:1), Malayziya (5:0), Gonkong (1:0) va Tailand (5:4) terma jamoalari ustidan g‘alaba qozondilar. Chorak finalda Turkmaniston terma jamoasini 3:0 hisobida, yarim finaldagi shiddatli va o‘ta murakkab o‘yinda Janubiy Koreyaning kuchli jamoasini 1:0 hisobida mag‘lub etdilar. Va, nihoyat, finalda Xitoy terma jamoasini 4:2 hisobi bilan yengdilar. Bu jamoa murabbiylari dotsent R.Akramov va sport ustasi B.Abduraimovlar edi. Asosiy tarkibning 7 nafar o‘yinchisi O‘zDJTI talabalari bo‘lganini aytib o‘tish joizdir.

Shu yilning o‘zida Osiyo chempionlari Kubogida ilk bor qatnashgan Farg‘onaning «Neftchi» klubi futbol ustalarii uchinchi sovrinli o‘rinni egalladilar.

Ta’kidlash joizki, mamlakatimiz mustaqillik yillarda sportning futbol turini yanada rivojlantirish, sohaning huquqiy asoslarini mustahkamlash maqsadida bir qator farmon va qarorlar qabul qilindi. Jumladan, 1996-yil 17-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekistonda futbolni rivojlantirishning tashkiliy asoslari va prinsiplari

tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” hamda “O‘zbekiston Respublikasida futbolni rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari, 2006-yil 1-mayda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekistonda futbolni rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori, 2019-yil 4-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekistonda futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-5887-sonli Farmonlarini qabul qilinishi yurtimiz futboli va soha mutaxassislari uchun ulkan imkoniyatlarni yaratib berdi. [5, 15. B]

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 17 yanvardagi «O‘zbekistonda futbolni rivojlantirish tamoyillari va tashkillashtirish asoslarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmoni O‘zbekistonda futbolning keyingi rivoji uchun katta ahamiyat kasb etdi. Bu farmonda kelgusi futbolni klublar asosida rivojlantirish va 1996 – 1997 yillarda viloyat markazlarida futbol bo‘yicha o‘smirlar maktab-internatlari ochilishi ko‘rsatilgan edi.

1992 yildan 2005 yilgacha bo‘lgan vaqt ichida Tosh-kentning «Paxtakor» va Farg‘onaning «Neftchi» klublari chempionat yetakchilari bo‘lib keldi. Paxtakorchilar besh marotaba O‘zbekiston chempioni bo‘lganlar (1992, 1998, 2002, 2003, 2004) va 6 marotaba mamlakat Kubogi sovrindorlari qatoridan joy olganlar (1993, 1997, 2001, 2002, 2003, 2004). «Neftchi» ham besh karra respublika chempioni (1992 – 1995, 2001) va 2 karra O‘zbekiston Kubogi sohibi (1994, 1996) bo‘lgan.

O‘zbekiston chempioni unvoniga yana «Navbahor» (1996), MHSK (1997) va «Do‘stlik» klublari erishganlar. Shuningdek, 1997, 1995, 1998 yillarda «Navbahor» va 2000 yilda «Do‘stlik» jamoasi O‘zbekiston Kubogini qo‘lga kiritganlar. 2002 yilgi Osiyo Chempionlari Kubogi uchun kurashda Qarshining «Nasaf» jamoasi ishtirok etadi. Saralash bosqichlarida 5 g‘alabani qo‘lga kiritib, yarim finalga chiqdilar. Ammo bronza medali uchun kechgan bu o‘yinda qarshiliklar «Istiqlol» (Eron) jamoasiga 2:5 hisobida g‘alabani boy berib, 4-o‘rinni egallaydilar.

2002 – 2003 yillarda O‘zbekistonning yoshlar terma jamoasi futbol ustalarii katta yutuqlarga erishdilar. Qatarda Tailand terma jamoasini 4:0, Katarni 5:4 hisobida yengib,

so‘ng Janubiy Koreyaga 0:2 hisobida g‘alabani boy berib, futbolchilarimiz chorak finalga yo‘l oldi va unda Suriya Arabistonini 4:0 hisobida mag‘lub etdilar. Yarim finalda o‘zbek futbol ustalarii Yaponiya terma jamoasi bilan uchrashdilar. Shiddatli va qizg‘in o‘tgan o‘yinning asosiy vaqti 1:1 hisob bilan yakunlandi. 11 metrli zarbalar yo‘llashda yaponlar bir oz ustunroq chiqib, 4:2 hisobida g‘olib bo‘ldilar.

To‘rtinchi o‘rinni egallagan O‘zbekiston yoshlar terma jamoasi dunyoning eng kuchli 16 jamoasi qatorida maydonga chiqish imkoniyatini qo‘lga kiritdi.

Jahon chempionati 2003 yilning dekabr oyida BAAda bo‘lib o‘tdi. O‘zbekiston futbol ustalarii chiroyli va baham-jihat o‘yin ko‘rsatdilar, lekin 1/8 finalga chiqa olmadilar. Biroq, mutaxassislar va ishqibozlar O‘zbekiston terma jamoasi o‘yinini yuqori baholadilar. Uch o‘yin davomida ular o‘z tengdoshlari bilan kurash olib bordilar, lekin Mali jamoasiga (Afrika chempioni) 2:3, Argentina termasiga (shu paytdajahon chempioni) 1:2, Ispaniya terma jamoasiga (Evropa chempioni) 0:1 hisobi bilan g‘alabani boy berdilar.

Osiyo qit’asi miqyosida futbol bo‘yicha eng nufuzli musobaqa bu shubhasiz – Osiyo chempionlar ligasi. Mazkur musobaqada o‘zbek futboli sharafini mamlakatning ko‘plab jamoalari himoya qilishgan. Biroq hozircha birorta o‘zbek klubi chempion bo‘la olmagan. “Paxtakor” va “Bunyodkor” klublaru ikki martadan yarim final bahslariga qadar yetib bordi. “Paxtakor” vakillari 2002-2003 yili OChL ning guruh bahslarida birinchi o‘rinni qo‘lga kiritib, pley-offda Tailandning “Tero Sasana” klubi bilan kechgan bahsda ikki o‘yin natijasiga ko‘ra yutqazib qo‘ydi [19]. OChL ning 2004-yilgi bahslarida “Paxtakor jamoasi” “Zob Ahan” (Eron), “Qatar SK” (Qatar) hamda “Riffa” (Bahray) jamolarini yengib, guruhdan birinchi o‘rin bilan chiqishdi. Chorak finalda “Al Vahda” (BAA) jamoasi mag‘lub etildi. Yarim final bahsida “Sonnam Ilxva Chxunma” (Janubiy Koreya) jamoasi qarshiligini yengib o‘ta olmadi [2, 10. B]. Toshkentning “Bunyodkor” jamoasi ham 2005-yili OChLdagi debyut ishtirokning o‘zidayoq yarim finalgacha yetib bordi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, mustaqillikka erishganimizdan so‘ng, o‘zbek futboliga davlat miqyosida e’tibor qaratildi. Shuni alohida aytib o‘tish joizki, istiqlol tufayli futbolimizga yangicha ruh, shukuh kirib keldi. Islohotlarning muhim va tadrijiy bosqichi boshlandi. Respublikamizning har bir mintaqasida futbol infratuzilmasini rivojlantirish,

jamoalar saviyasini o‘stirish, yosh iqtidorlarni qo‘llabquvvatlash bo‘yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirildi. Buning samarasida mamlakat futbol jamoalari bilan birga, terma jamoa a’zolari ham qit’a va xalqaro miqyosidagi musobaqalarda munosib ishtirok etib kelmoqda. Bu haqda gap ketganda, o‘smirlar va yoshlar terma jamoamizning Osiyo va Jahon chempionatlaridagi muvaffaqiyatli ishtirokini alohida e’tirof etish joiz.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Nurimov Z.R., Kurbanov Sh.O. Futbol: O‘quv qo‘llanma. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2018. – 161 b.

2. Futbol. Darslik R.A.Akramovning umumiy tahriri ostida. Toshkent, O‘zDJTI nashriyoti. 2006.

3. Talipdjanov A.I. Yuqori malakali futbolchilar tayyorlashning zamonaviy tizimi. – T., 2012.

4. Нуримов Р.И. Футбол. – Тошкент. 2005.

5. Akramov R.A.Futbol. Darslik Toshkent. 2005

